JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 24 - yanvar 29-3-53-Q/22 Forish tuman hokimligi

Forish tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli muassalariga hudud aholisini biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligining 2021-yil 31-maydagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tuman (qishloq)larida joylashgan ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika (filial)lar tibbiyot va boshqaa xodimlarning shtat me’yorlari” to‘g‘risidagi tasdiqlangan qo‘shma xati hamda “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 2634, 2014-yil 15-dekabr) talablariga muvofiq hamda Forish tuman tibbiyot birlashmasining xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat xokimyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbeksiton Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri, Bandlik va mehnat munosabatg lari vaziri hamda Moliya vazirining o‘rinbosarlarining 2021-yil 31-maydagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tuman (qishloq) larida joylashgan ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika (filial)lar tibbiyot va boshqaa xodimlarning shtat me’yorlari” to‘g‘risidagi tasdiqlangan qo‘shma xatiga hamda O‘zbekiston Respublikasini Byudjet Kodeksi, O‘zbeksiton Respublikasi adliya vazirligida 2014-yilni 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosan ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi, oila poliklinikasi va oila shifokorlik punktlarining 2021-yil uchun tasdiqlangan shtatlar jadvallarini tuzilib

tuman moliya bo‘limidan 2021-yil 1-iyuldan qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan qo‘shma xatning bandi “Aholiga qulaylik yaratish maqsadida aholi punktlari (aholi bilan) tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun boshqa qo‘shni xududda shu tipdagi muassalarga biriktirilishi mumkin.

Bunda, tibbiyot birlashmasinung moliya bo‘limi bilan kelishilgan taklifiga binoan tuman hokimligining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi, qarordagi ko‘rsatmaga asosan tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli muassasalarga hududlar kesimida hamda tor doiradagi shifokorlar ko‘rigi uchun tumandagi 25 ta mahalla fuqarolari yig‘inidagi aholi ilovaga muvofiq biriktirilsin.

2. Tuman tibbiyot birlashmasi (A. Jabborova)ga biriktirish tartibiga asosan tuman moliya bo‘limi (A. Kazakov)ga mazkur qarorga muvofiq tegishli tartibda ishlarni tashkillashtirish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning www.forish.jizzax.uz − rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Saidxonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **И.Матиев**

Фориш туман ҳокимининг
2022 йил 24 январдаги
29-3-53-Q/22-сон қарорига
1-илова

Forish tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli muassalariga biriktirilgan hududlar

Tibbiyot muassasasi nomi	Aholisi biriktiriladigan MFY nomi
Ko’p tarmoqli markaziy poliklinika	O‘zbekiston MFY
	Amir Temur MFY
	Uchma MFY
	Oybek MFY
	Qo’lba MFY
	Bog’don MFY
Qorabdol filiali	Mustaqillik MFY
	Yassikechuv MFY
Garasha filiali	Garasha MFY
	Ilonli MFY
26-sonli oilaviy poliklinika	Oqtepa MFY
	Osmonsoy MFY
	Sayyod MFY
O’xum OShP	O’xum MFY
	Do’stlik MFY
	Oybek MFY Porasht qishlog’i
Qizilqum OSHP	Qizilqum MFY
Uchquloch OSHP	Uchquloch MFY
Egizbuloq OSHP	Egizbuloq MFY
Mehnatobod OSHP	Oqtom MFY
Nurak OSHP	Nurak MFY
Erimbetov OSHP	Darboza MFY
Amankeldi OSHP	Istiqlol MFY
Xonbandi OSHP	Xonbandi MFY
Bolg’ali OSHP	Qorabdol ota MFY
Narvon OSHP	Narvon MFY